



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

5. Oscarson, A. D. (2009). Self-Assessment of Writing in Learning English as a Foreign Language. Guteborgs Universitet.
6. Topping, K. J. (2009). Peer Assessment. *Theory Into Practice*, 48(1), 20-27.
7. Mahira, K. (2024). METHODOLOGICAL PROBLEMS FOR A FOREIGN LANGUAGE TEACHER: MONITORING AND ASSESSING SKILLS. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(10), 10-15.
8. Khusanova, M. (2023). HISTORY OF USING TESTS IN MONITORING THE LEVEL OF QUALIFICATION. *Science and innovation*, 2(B7), 17-21.
9. Khusanova, M. (2022). Learning new content material through cooperative group discussions. *European Scholar Journal*, 3, 44-45.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SINTAKTIK USULDA HOSIL QILINGAN EVFEMIK IFODALAR

Xaydarova Shoiraxaydarova qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

shoiraxaydarova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida sintaktik usul asosida hosil qilingan evfemik ifodalarning lingvistik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Sintaktik evfemizmlar – so‘z yasaliishi emas, balki gap tuzilishi, so‘z tartibi va grammatik konstruksiyalar orqali noqulay mazmunli tushunchalarni yumshatishning muhim vositasidir. Tadqiqotda ikkala tilda qo‘llaniladigan sintaktik usullar, ularning madaniy-lingvistik xususiyatlari va farqlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: evfemizm, sintaktik usul, nominalizatsiya, passiv nisbat, shart mayli, lingvistik pragmatika, qiyosiy tilshunoslik.

Har qanday tabiiy tilda bo‘lgani kabi, o‘zbek va ingliz tillarida ham sintaktik usul asosida hosil qilingan birikma shaklidagi evfemizmlar muhim o‘rin egallaydi. Bu usul yordamida ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘z bir-biri bilan grammatik bog‘lanib, ijtimoiy, axloqiy yoki madaniy jihatdan yumshatilgan, etik doirada maqbul ifodalar yaratiladi [1]. Sintaktik birliklar orqali ifodalanadigan evfemizmlar sohaga oid tushunchalarning kengayishiga, ularning barqarorlik kasb etishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ular ruxsatsiz yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytish noqulay bo‘lgan holatlarni muloyimlik bilan anglatish uchun tilning madaniy mexanizmi sifatida faol ishlatiladi.

Sintaktik evfemizmlarning lingvistik mohiyati

Sintaktik usulda hosil bo‘lgan inglizcha evfemizmlar – bu gap tuzilishi (so‘z tartibi, grammatik konstruksiyalar) orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri, noqulay yoki qo‘pol ma‘noni yumshatishdir. Ularning asosiy xususiyati: leksik o‘zgarish emas, balki ifoda usulidagi o‘zgarish [2]. Xuddi shunday, o‘zbek tilida sintaktik usulda hosil bo‘lgan evfemizmlar – bu gap tuzilishi (so‘z tartibi, bog‘lovchilar, shakllar) orqali noqulay mavzularni yumshatishdir. Ularda asosiy diqqat so‘z o‘zgarishiga emas, balki ibora yoki gap qurilmasidagi noziklikga qaratiladi.

Ingliz tilidagi asosiy sintaktik usullar quyidagicha usullar yordamida hosil qilinadi:

Majhul nisbat yordamida hosil qilingan gaplar: Bunday tuzilmalarda javobgar shaxsni yashirish, harakatni mavhumlashtirish maqsadida majhul nisbatdan foydalinaladi.

“Mistakes were made.” (Xatolar qilindi) — “I/We made mistakes.” (Men/Biz xatolar qildik) ga qaraganda javobgarlikni kamaytiradi [3].

“Reductions will be implemented.” (Qisqartmalar amalga oshiriladi) — “We will fire people.” (Biz odamlarni ishdan bo'shatamiz) ni yumshatadi.

Nominalizatsiya (Fe'llardan Ot Yasalish): Ushbu usul yordamida harakat mavhum tushunchaga aylantirilib, uning dinamik va to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini pasaytiriladi.

“The termination of his employment.” (Uning ish bilan ta'minlanishining tugashi) — “He was fired/sacked.” “There will be some collateral damage.” (Qo'shimcha zarar bo'ladi) — “Civilians will be killed.” (Tinch aholi o'ldiriladi).

Impersonal (Shaxssiz) Qurilmalar (“It”, “There”): Harakat egasini anonimlashtirish, umumiy holat sifatida ko'rsatish.

“It was decided that his services are no longer required.” (Uning xizmatlari endi kerak emasligi qaror qilindi) — “We fired him.” “It appears he is no longer with us.” (U endi biz bilan emasdek ko'rinadi) — “He died.” (U vafot etdi).

O'zbek tilida sintaktik evfemizmlarning shakllanish usullari

Passiv (Noma'lum Fe'l) Shakli: Javobgar shaxsni yashirish, harakatni obyektivlashtirish. “Uning ish bilan ta'minlanishi tugatildi.” (Ishdan bo'shatildi) — “Uni ishdan bo'shatdilar.” “Qaror qabul qilindi.” (Qaror qabul qilindi) — “Rahbar qaror qildi.” (Ayniqsa siyosiy mavzularda).

Nominalizatsiya (Harakatni Otga Aylantirish): Faollikni mavhum tushunchaga o'tkazish. “Korxonda kadrlar sonini qisqartirish rejalashtirilmoqda.” (Ishdan bo'shatishlar) — “Korxonda odamlar ishdan bo'shatiladi.” “Uning davolanishi kerak.” (Operatsiya qilinishi) — “Uni operatsiya qilishadi.”

Shart Mayli (“Edi”, “Ekan”, “Bo'lsa”): To'g'ridan-to'g'ri rad etish o'rniga nozik imo-ishora. “Sizning taklifingiz qiziqarli bo'lsa ham, hozircha ularga mos emas.” (Rad etish) — “Taklifingiz qabul qilinmadi.” “Bu fikr to'g'ri bo'lmasa kerak.” (Noto'g'ri) — “Bu fikr ahmoqona.”

O'zbek tilida sintaktik evfemizmlar asosan passiv qurilma, nominalizatsiya, shart mayli va metaforik iboralar orqali hosil bo'ladi. Ularning kuchi – to'g'ridan gapirishning og'irligini gap tuzilishi bilan yengillashtirishda. Biroq, morfologik evfemizmlarga nisbatan kamroq uchraydi, chunki o'zbek tili suffikslar (-cha, -lik) va qo'shma so'zlar (tahoratxona) orqali evfemizm yaratishda ancha boy.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'zbek va ingliz tillarida sintaktik evfemizmlar ijtimoiy munosabatlarda muloyimlikni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Ikkala til ham javobgarlikni pasaytirish, abstraktlikni oshirish, pragmatik noziklik va madaniy qabulchanlikni ta'minlash uchun sintaktik usullardan keng foydalanadi.

Ingliz tilida sintaktik evfemizmlar ilmiy-texnik terminlar va rasmiy munosabatlarda ko'proq qo'llanilsa, o'zbek tilida ular diniy va an'anaviy madaniyat bilan chambarchas bog'liq. O'zbek tilida sintaktik evfemizmlarning nisbatan kam

qo'llanishi morfologik evfemizm yaratish imkoniyatlarining kengligi bilan izohlanadi. Sintaktik evfemizmlarning til madaniyatidagi o'rni va ularning qiyosiy o'rganilishi nafaqat lingvistik, balki madaniyatlaro komunikatsiya va interkultural muloqotni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allan, K., & Burridge, K. (2006). *Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language*. Cambridge University Press.
2. Holder, R. W. (2008). *A Dictionary of Euphemisms*. Oxford University Press.
3. Neaman, J. S., & Silver, C. G. (1990). *Kind Words: A Thesaurus of Euphemisms*. Facts on File.
4. Усмонов, С. (2018). Ўзбек тилидаги эвфемизмларнинг лингвوماданий хусусиятлари. Тил ва адабиёт таълими, 4, 45-49.
5. Раҳимов, М. (2020). Ўзбек ва инглиз тилларидаги эвфемизмларни қиёсий ўрганиш. Филология фанлари доктори диссертацияси. Тошкент.
6. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.

“OVUL ORALAGAN BO‘RI” QISSASIDA TABIAT VA INSON RUHIYATI TASVIRIGA XOS MUSHTARAKLIK

Toshbekova Ziyoda

mustaqil tadqiqotchi

ziyodatoshbekova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Normurod Norqobilovning “Ovul oralagan bo‘ri” qissasidagi insoniyat va nabotot dunyosidagi mushtaraklik qiyosiy tahlil etilgan bo‘lib, unda ular o‘rtasidagi mutanosiblik ruhiyati chizgilari orqali tatqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: peyzaj, “Ovul oralagan bo‘ri”, qissa, ijodkor, umuminsoniy xislatlar, bo‘ri, mergan, majoziy obrazlar.

Badiiy adabiyot dunyosida inson tasviri yetakchi omil ekanligi sir emas. Badiyat olamida mohir yozuvchi va adiblar uni aslo yakka-yolg‘iz tasvirlamaydi. Balki tabiat hodisalariga uyg‘un ravishda qalamga oladi. “Adabiyotning bosh mavzusi inson bo‘lgani bois uning xilma-xil holat, harakat, intilishlari badiiy asar uchun material bo‘la oladi. Lekin badiiy asarda gavdalantirilgan voqea-hodisalar hayotda ro‘y bergan yoki bo‘lishi mumkin voqealarning shunchaki bayoni emas, balki ularning muayyan nuqtai nazardan qayta ishlangan shakl idir”. [1] Shu e‘tibordan, N.Norqobilov o‘zbek nasrida odam, tabiat, hayvoniy olamning o‘zaro murakkab munosabatlarini muqoyasalar asnosida aks ettirishga intilayotgan ijodkordir. N.Norqobilov tog‘ bag‘ri qishloqlarini sayt etadi: ovchi, tog‘chi, o‘qituvchi, qizu ayol, bo‘ri, it, ayiq, qoplon singlarlar fe‘lini ko‘p bora tadqiq etadi. Odam bozorini kezadi, imkon qadar badiiy so‘z vositasida ularni baholashga harakat qiladi. Unda munosabatlar, chinu yolg‘on xatti-harakatlar, tuslanish va turlanishlar ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi hayvonu inson aro rango-rang